

TO'RTKO'L TUMAN AXBOROT – KUTUBXONA MARKAZI
AXBOROT- BIBLIOGRAFIYA XIZMATI



TO'RTKO'L TARIXI

(TO'RTKO'L shahriga asos solinganligining 150 yilligiga)

USLUBIY QO'LLANMA


To'rtko'l -2023

KIRISH

Qo'lingizdagi qo'llanma Quyi Amudaryo etaklarida Yevropa usulida qurilgan Petro- Aleksandrovsk- To'rtko'l shahri va uning atrofidagi qadimiy qal'alar tarixiga bag'ishlangan. Shahar 1873-1940 yillarda Amudaryo bo'limi, Qoraqalpog'iston viloyati va Qoraqalpog'iston ASSR ning poytaxti bo'lgan. Mustaqillik yillari. Bu muqaddas so'z zamirida katta ma'no, ulug'vor ishlar, misli ko'rilmagan ishlar mujassam. O'tgan 32 yil butun bir mamlakat kabi, to'rtko'lliklar hayotida ham yorqin izlar qo'ldirdi. To'rtko'l ahli ko'z o'ngida Amudaryo uzra bunyod etilgan ikkita ulkan ko'prik,temir yo'llarning o'zi bir afsona. Tumanda qurilgan zamonaviy uy-joylar, ma'naviyat va ta'lim muassasalari, serhosil dalalarda fermerlar qo'lga kiritayotgan yutuqlar, turli sohalarda yoshlarning erishayotgan mufaqqiyatlari- hamma-hammasi to'rtko'lliklarning farovon hayot daftariga yozilgan tarixiy bitiklar.Bu qo'llanmadan o'rin olgan maqolalarda qayd etilgan ibratli ishlar, zafarlar,shoir va adiblarning ijodidan namunalar o'ziga xos sarhisob. Ular sizda ham faxrlanish tuyg'usini uyg'otsa ajabmas. Ushbu qo'llanmadan o'zingizni qiziqtirgan ayrim ma'lumotlarni topishingiz mumkin.

TO'RTKO'L TUMANI

To'rtko'l tumani Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tuman bo'lib, u 1927 yil 3 iyulda tashkil etilgan. G'arbdan Ellikqal'a tumani, janubi-g'arbdan Xorazm viloyati, sharqdan Buxoro viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 7,5 ming km. Aholisi 222,0 ming kishi (2022). Tumanda bitta To'rtko'l shahri, 49 mahalla va ovul fuqarolar yig'inlari mavjud.



TO'RTKO'L TARIXI

Shu kunga kelib tumanimiz yoshi 150 yil deb hisoblanayotgan bo'lsa ham, aslida uning tarixi necha ming yillarga borib taqaladi. Jahon tamaddunida muhim o'rin tutgan Buyuk ipak yo'li ham To'rtko'ldan o'tganligi tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan yozilgan. Shahar va tuman atrofida neolit, arxaiik, antik davrlarga oid ko'pgina yodgorliklar, qal'alar, ko'hna sug'orish tarmoqlarining qadimiy izlarini, Yonboshqal'a, Ayoqal'a, Burgutqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Qushporson, Qulotov, Kaltaminor, Sho'raxon va boshqa qadimiy qal'alarning har birida ming-ming yillik tarix muhrlangan. Atoqli arxeolog-akademik S. P. Tolstov va boshqalarning uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida To'rtko'lning qadimiy va sarmazmun solnomasiga qimmatli sahifalar qo'shilgan. Bu o'lkaga XI-XII asrlarda tashrif buyurgan arab geografi va sayyohi Yoqut ibn Batuttalar ham o'sha davrda To'rtko'l va uning atrofidagi xalqlar juda juda zich, turmush tarzi yaxshi va obod ekanligi, savdo qilish uchun eng qulay joyligini qayd etganlar. To'rtko'lda ham juda ko'p qal'alar hisobga olinib, shulardan eng qadimiysi "Qo'rg'oshinqal'a" va "Qo'yqirilganqal'a"dir. Qal'aning aylana shaklga egaligi va u yerda olib borilgan arxeologik qazishmalar jarayonida, topilgan silindr shaklidagi sopoldan ishlangan qurilmalarga asoslanib, birinchi marta professor S.P.Tolstov o'zining mashhur "Qadimgi Xorazm" nomli kitobida: "Qo'yqirilganqal'ada antik davrlardayoq xorazmliklar osmon jismlarini o'rganish maqsadida rasadxona qurgan va astronomik kuzatuvlarni ham olib borgan", degan o'zining ilmiy taxminini ilgari suradi. Bu haqda tarixchi Samandar Ismoilovning "Ko'hna qal'alar og'ushida" asarida juda keng o'rin berilgan. Qadimgi davrlardan buyon "Sho'raxon- G'arabxashna" (qishloq nomi) atamaları singari "To'rt- gul", "To'rt- ko'l" atamaları bilan bog'liq rivoyatlar ham bo'lgan. To'rt tomoni teng geometrik jismga mengzalgan to'rt ko'l atamasi esa haqiqatga yaqinroq bo'lib, atamaning qachon paydo bo'lgani ma'lum emas. Lekin buni tasdiqlovchi yana bir dalil Chor Rossiyasi Amudaryoning o'ng qirg'og'i bo'lgan bu hududda to'rt tomoni teng kvadrat shaklida harbiy garnizon qurdiradi. Harbiy garnizon joylashgan bu Petro- Aleksandrovskiy qal'asida maktab, kasalxona, teatr, poligraf kombinat,

kutubxona va shuningdek bozor ham bo'lgan. Yerlik aholi o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, ya'ni sabzavot va poliz ekinlarini, shirin-sharbat mevalarni bozorga keltirib, o'ziga kerakli bo'lgan sovun, sham, gugurt, nina, o'ymoq singari sanoat mollari bilan ayirboshlagan. Ana endi yerlik aholi o'z talaffuzida Petro Aleksandrovskiy nomini aytishda yanglishajagini bilgani uchun o'ziga oson yo'lni-sifatlash yo'lini tanlagan va qal'adan uyiga qaytib, qo'ni- qo'shnilarga to'rt kull qal'asiga kirib chiqdik degan. Momolarimiz ham agar e'tibor bergan bo'lsangiz ko'rpani tikib bo'lib, tortib-tortib mana endi to'rt kull bo'ldi deyishadi."To'rt kull" atamasi keyinchalik shubhasiz to'rtko'l bo'lib ketgan.

To'rtko'l- bag'rikeng shahar. Unga juda ham ko'p buyuk insonlar xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lsin mehmon bo'lib, non-tuz yegan. Bulardan Qirg'iziston xalq yozuvchisi, butun jahon adibi Chingiz Aytmatov, kosmonavt Vladimir Jonibekovlarni aytib o'tsa arziydi. Shuningdek, To'rtko'ldan davlat arboblari Yo'ldosh Qurbonov, Qalandar Toirov, necha yillar To'rtko'lga rahbarlik qilgan Qosim Nurumbetov, mustaqillikning birinchi hokimi Hajiyev G'ani Nuriddinovichlar faoliyat ko'rsatgan. Bu yerdan yetishib chiqqan olimlar bugungi kunda ham xo'jaligining turli sohalarida o'z bilim va kuch-g'ayratlarini ayamay mehnat qilmoqdalar. Sog'liqni saqlash borasida to'rtko'llik Qurbon Ayitov nafaqat o'z xalqi orasida, balki jahon xalqlari orasida ham ma'lum va mashhur bo'lib kelmoqda. Umuman To'rtko'l tarixining o'zi juda katta bir kitob bo'ladi

GULDURSUN QAL'ASINI IZLAB

Guldursun va Bozirgon, afsonalari qadimgi grek afsonalaridagi Troyan qal'asi va u haqdagi Gomer tomonidan to'qilgan mashhur poemani esga tushiradi. Ma'lumki, nemis arxeologi Genrix Shleman bolalik chog'larida Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlarini yod bilgan. Natijada uning ko'z o'ngida Troyan urushining qahramonlari, "Yog'och ot", qamalda qolgan qal'alar gavdalanavergan. Yosh Genrix "Katta bo'lsam, troyan qal'asini izlab topaman" deb xitob qilgan ekan.

Chindan ham u katta olim-arxeolog bo'lib yetishdi. Eramizdan ming yillar oldin Egay dengizi bo'ylarida yuz bergan qonli voqyealar tarixini kashf etdi. Bir so'z bilan aytganda afsona tarix haqiqatiga aylandi...

1873 yil iyul oyida Fon Kaufman boshliq rus qo'shinlari qadimiy Xorazm diyorida kayf-safo qilib g'alaba nashidasini surayotgan damlarda Germaniyadan jahon ahlini lol qoldirgan shov-shuv (sensasiya) tarqaldi. "G.Shleman Troyan qal'asini topdi". "Afsona tarix bo'lib chiqdi". "Uch ing yillik nodir qurol-aslahalar Turkiyadan Berlinga keltirilib uzeyda saqlanmoqda" degan xabarlar Xiva safarida qatnashayotgan korchalonlar ishtahasini ochib yubordi. Fon Kaufman bu xabarni gazetadan o'qigach. Amu daryoning o'ng va chap qirg'oqlardagi qadimiy qal'alarni albatta kovlab ko'rish uchun "Turkiston arxeologiya jamiyati" tuzish lozimligini ko'ngliga tugib qo'ydi... Axir nemislar Turkiyada, Fransuzlar Misrda, inglizlar Hindistonda tarixiy yodgorliklarni kavlab ozmuncha boylikka ega bo'ldilarmi?.... Fon Kaufman yonidagi yonidagi topograf,etnograf, geograf olim- ofiserlarga zudlik bilan tarixiy jo'g'rofiy ma'lumotlar xaritasini tayyorlab berishni iltimos qildi.

Axir ilm-fan va madaniyat masalalarini harbiy va siyosiy masalalarga o'xshab "bir zarb bilan" bitmasligini Fon Kaufman qaydan bilsin? Qum barxanlari ostida qolib ketgan 5-7 ming yillik qal'a va makonlarni kovlab topish bosqinchilik urushlariga nisbatan mushkulroq ish. Buning uchun e'tiqod, iste'dod, fan yo'lida fidoiylik kerakligini chor Generali o'ylab ham ko'rgan emasdi.. Ko'hna Xorazmning qadimiy qal'alari sirini ochish oradan qariyib 65 yil o'tgach, General Fon Kaufmanga nisbatan butunlay boshqacha dunyoqarashdagi yana bir rus kishisiga nasib etdi. Keyinchalik u kishining nomi xuddi nemis kasbdoshi G. Shleman kabi butun dunyoga mashhur bo'ldi.

1937 yil bahor oylarining boshlarida Amudaryoning janubiy sohillari bo'ylab xuddi qadimgi ertaklardagi karvonlarni eslatuvchi g'alati ekspedisiya Xorazm vohasiga kirib keldi. Karvon ixtiyorida 34 nafar ilmiy xodim, bitta gazik mashina, 12 tuya, yigirmatacha ot, eshaklar va boshqa zaruriy asbob-uskunalar bor edi.

Karvonboshi endigina 30 bahorni ko'rgan, vazmin, ziyrak, teran mulohazali, turkiy va forsiy tillarda bemalol gapira oladigan olim Sergey Pavlovich Tolstov edi. U har qanday kishi bilan darrov til topisha olardi, kekxa xariyalar bilan «Qur'on» suralari xususida, «Oshiq G'arib va shoxsanam» kabi dostonlar haqida so'zlashsa, ayollar bilan esa alla, yor-yor qo'shiqlari haqida gurunglashardi, mahalliy aholidan yo'l boshchilar, yer qaziydigan ishchilar yolladi. Bir vaqtning o'zida Kuzali va Guldursun Ayoq, Chirik, Devqal'a va Tuproqqal'a, Kir va Qo'yqirilgan qal'alarda tuproq qazish ishlarini boshlab yubordi. U birinchi bo'lib arxeologiya ishida ekskavatorlarni ishlatishdan voz kechdi, toposyemka uchun aeroplardan keng foydalandi. Dastlabki qazishmalar davridayoq topilgan ashyoviy dalillar sopol idishlar, o'q-yoy, kamon, bronza buyumlar, bezaklar olimning ilmiy farazlari to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

1937-1940 yillarda ekspeditsiyaga ko'pgina mahalliy muassasalardan yangi f'zolar qo'shildi. 1941 yili boshlangan Ulug' Vatan urushi Xorazm tarix va arxeologiya ekspeditsiyasi ishini to'xtatib qo'ydi. Olim ko'ngilli bo'lib frontga jo'nadi. Og'ir artilleriyachi kapitan S.P. Tolstov Moskva atroflaridagi janglarning birida oyog'idan yaralandi va Xorazmga qaytib keldi. U 1946 yil 4 iyulda SSSR Fanlar Akademiyasining umumiy yig'ilishida Xorazm ekspeditsiyasi yakunlariga doir hisobot berdi: shu davrgacha noma'lum bo'lgan 200 qal'aning siri ochildi. 11 ming kvadrat metr maydonda yer qa'rida 15-20 ming yil yotgan antropologik, arxeologik ashyoviy dalillari, ibtidoiy jamoa, quldorlik davrlari, qadimiy Xorazm davlatining paydo bo'lishi, kuchayishi va yemirilishiga doir bebaho ashyoviy topilmalar tarix fanida yangilik bo'ldi. Qizilqumda barxanlar ostida qolib kelayotgan, balandligi 12 metrlik Tuproqqal'a islomgacha bo'lgan davrda bunyod etilganligi aniqlandi. Bu yerdan katta qasr, qurol- aslaha ustaxonasi, "podsholar maskani", "harbiylar zali", "g'alaba va tantanalar zali" kabi 200 xonalik koshonalar topildi. Qal'a qabrlaridan topilgan qudratli qulchilik davrining mahsuli – oltin – kumush, tanga pullar bilan uzuk, sirg'a, bo'yinga osiladigan qimmatbaho toshlardan ishlangan bezaklar, chang chalayotgan ayol suratining topilishi dunyo tarixi fanida katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Bu tarixiy topilmalar burjua olimlari orasidagi irqiy konsepsiyani,

“ Sharq madaniyati G’arb sivilizasiyasining aks-sadosi” degan shovinistik fikrni chippakka chiqarib yubordi. Qolaversa, Xorazm ekspeditsiyasi G’arb bilan Sharqni bog’lab kelgan “Buyuk karvon yo’li” vohamiz orqali o’tganini isbotlab berdi. Olim To’rtko’l shahridan 22 kilometr shimoli-sharqda joylashgan astronomik kuzatishlarga moslashtirilgan (eramizdan avvalgi IV asr) minorali Qo’yqirilgan qal’a istehkom devorlarini kavlab topdi. Ushbu qal’a geometriya, geodeziya, astronomiya, fanlarining mohir bilimdonlari tomonidan bunyod etilganligi, oy, quyosh, kun, yil hisoblari, dehqonchilik madaniyati, belgilari shunday ko’rinib turar edi.

1947 yil avgust oyining o’rtalarida Moskvadagi moddiy madaniyat yodgorliklari ilmiy tekshirish institutiga uzoq Qizilqum sahrosidan quyidagi mazmunda telegramma keldi: “ Xorazmiylar yozuvi topildi. Arxologiya ishlari davom ettirilmoqda”.

O’sha yil arxeolog olim uchun juda sermahsul yil bo’ldi. Xorazmshoxlar arxiv yozuvidan tashqari qal’a devorlariga monumental rasm solish usulida bitilgan uzum va olma terayotgan go’zal qiz rasmi, alibastrdan ishlangan Gresiya va Rim haykallari bilan raqobat qila oladigan madaniyat yodgorliklari topildi. Xorazmga egalik qilgan er-xotin Vazamaralarning byusti, oq marmardan o’yib ishlangan burgut, marmar toshdan yasalgan qora negr haykali, oltin kumush, mis, tangalar va boshqa yuzlab noyob topilmalar oskvadagi Sharq xalqlari muzeyi va Nukus san’ati muzeylarning faxriga aylandi. Ekspeditsiya a’zolari o’nlab fol’klor asarlari: doston, latifa, ertak va afsonalarni yozib oldilar. Shulardan biri O’rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan “Oshiq G’arib va Shohsanam”, “Guldursun” dostoni va afsonasidir.

Mana qarshimizda ertak va afsonaga aylangan Qo’yqirilgan va “Guldursun” qal’alarining xarobalari.

Balandligi 8-10 metrdan kam emas. Professor katta va kichik Guldursun qal’alarini puxta o’rganib, ularni ilmiy adabiyotga olib kirdi.

Boshqacha qilib aytganda, “Ertak – tarixga aylandi”. “O’rta Osiyoning Misri-Xorazm davlati” o’z varaqlarini bir-bir ochaverdi.

1948 yilda S.P. Tolstov “Qadimgi Xorazm” monografiyasi uchun Stalin mukofotining laureati degan sharaflı unvonga sazovor bo’ldi.

ABDULLAI NORINJON VALIY

Abdullai Norinjon valiy maqbarasi hozirgi Ellikqal’a tumanida joylashgan. “Abdullai Norinjon valiy to’g’ri so’z, o’z davrining mohir voizi sifatida o’z yurtida katta e’tiborga ega bo’lgan. U karomatli kishi bo’lgan. O’z vaqtida uning mashhur bo’lishiga sabab, bu Norinjon shahrining Buxoro va Xorazm karvon yo’llarida joylashganligi natijasida turli darveshlar va qalandarlarning makoniga aylanishidir:”- deyiladi. J.



Bozorboyevning Avliyolarning siri” kitobida Afsona va manbalarda Norinjon shahri nomi Abdullai Norinjon valiy, “Norinjon avliyo”, “Norinjon bobo” kabi nomlari bilan almashtirilib kelingan. S.P.Tolstov o’zining “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” nomli asarida ko’rsatishiga

qaraganda “Norinjon” shahri o’zining rejasi bilan e’tiborni jalb qiladi. Shahar rejasi to’g’ri to’rtburchak shaklidir. Baland tepalik etagida joylashgan bu rejani tevarak atrofdan qum bosgan burjli devor xarobalari qurshab turadi. Darhaqiqat, hozirgi Norinjon bobo qabristonidagi mozorlar eski Norinjon shahri o’rnida joylashgan. Qolaversa, buni xalq og’zaki ijodi mahsuli bo’lmish rivoyatlar ham tasdiqlaydi.

Abdullai Norinjon valiy haqidagi rivoyatlardan birida aytilishicha, oxir zamon payg’ambarimiz Muhammad Mustafo s. a. v. dan “Yo rasuli xudo, kim saxiy?”-deb sahobalardan bittasi so’rabdi. Rasuli akram:- “Sa’dvaqqos saxiy”- deb javob

beribdilar. Shunda chohoryorlardan bittasining (Hazrati Usmonning bo'lsa kerak) ko'nglida gina, qudurat paydo bo'libdi. "Yo tavba, men bor-budumni xalqqa tutsam, payg'ambarimiz meni aytmay, qaurdagi Sa'dvaqqosni aytdilar..."-deb ko'nglidan o'tkazgani ham shu ekanki... Payg'ambarimiz chohoryorlarga qarab:- "Sa'dvaqqosnikiga boring. Nima bersa ham olmang. Yolg'iz o'g'li Abdullajonning jonini so'rang"- debdilar. Chohoryorlar bir-biriga qarashib yo'lga tushibdilar va borib "Sa'dvaqqos purning uyi shumi?"- duyishibdi. Ichkaridan Sa'dvaqqos purning ovozi eshitilibdi: "Mehmon –atoi-xudo, qani kiring2-deb mehmonlarni ichkariga boshlabdilar. Mehmonlar o'zlariga hych narsa kerakmasligini, faqat Abdullajonning joni kerakligini so'rabdilar. Sa'dvaqqos pir o'g'lining maktabda ekanligini, hozir izidan odam yuborib oldirishini aytibdi.

Xullas, Abdullajonni yetti yasharligida so'yib, mehmonlar talabini bajo keltiribdi. Buni sezgan payg'ambarimiz xudodan shu Abdullajonning jonlarini qaytarib berishlarini so'rab yolvoribdi.

Shunda rasuli akramning munojoti inobatga olinib, Jabroil Alayhissalom darvesh suvratida Sa'dvaqqos pirnikiga boradi. Pir darveshni ko'rib, "Keling,keling" deb, ichkariga boshlaydi. Darvesh "Abdullajon qani?"- deb, so'raydi. Pir esa "Hali maktabdan qaytmadilar"-deb, javob beradilar. Darvesh yana bir fursat o'tgandan keyin yana Abdullajonni so'raydi. Pir "jo'ralari bilan kelayotgandir"-deydi. Shunda darvesh :- «qani , meni Abdullajon yotgan xonaga boshlang" –deganlaridan keyingina, darvesh hamma narsadan xabardor ekanliklarini sezib,Abdullajonning yoniga bo'shlaydi. Darvesh "Abdullajon" deb, uch marta chaqiradilar. Abdullajon ham, aksa urib, ko'zlarini ochadilar.

Shunda darvesh:- "Abdullajon, birinchi chaqirganda qayerda edingiz?" deb so'raydilar. Abdullajon: "Jannatda edim"- deb javob berdilar. "Ikkinchi chaqirganimda qayerda edingiz?" deb so'raydi darvesh. "Huri-g'ilmonlar bilan birga edim", "Uchinchi chaqirganimda qayerda edingiz?"- "Shukur, alhamdulillah, yo'lda edim"-deb, javob bergan ekanlar.Shunda darvesh: "Abdullajon Norinjon valiy bqlsinlar"-deb duo qiladilar-da, ko'zdan g'oyib bo'ladilar. Bular, albatta, og'izdan-

og'izga ko'chib yurgan rivoyat. Lekin Norinjon valiy maqbarasi ichidagi qabrni ko'rib, balkim, afsona haqiqatdir, deb o'ylaysan. chunki, qabrning ho'salasi shu qadar kichikki, go'yoki 7-10 yashar bolaning qabriday.

Norinjon bobo ziyoratgohini necha marta qum bosib, necha marta qumdan ochishgan. Bolaligimizda hujralar soni ham ko'p edi. Norinjon valiyini tavof qilgandan keyin, hujralarda o'tirib choy ichib, ovqatlanib, dam olib ketishar edik. Taxminan o'n yillardan keyin shu hujralarni qum bosib qoldi. Norinjon valiy maqbarasining ustki gumbazigina ko'milmay qolgan edi. Shu gumbazdagi darchadan pastga qarab, buvamizning qabrini ko'rib ketar edik. Hozirda esa Norinjon bobo ziyoratgohi obod maskanlardan biriga aylangan. Buyuk ipak yo'lidagi eski Norinjon shahri qayta tiklangan. Bu yerdagi tosh devorlar go'yo o'tmishning tilsiz guvohlariday. "Norinjon" so'zining etiologiyasi- deydi To'ra Qilichev o'zining "Qo'hna qal'alar diyori" kitobida (49-bet), hozirgi o'zbek tilida "anor" so'zini anglatadi. Fors tilida esa "anor" so'zi "O't"-olov tushunchasiga ega. Bu nomning Abdullajon buvamizning nomlariga qo'shilib aytilishiga sabab buvamizning o't, tezob, qizma ekanligi bo'lsa kerak.

Ushbu dil so'zlarini Abdullai Norinjon Bobomga bag'ishlayman.

Olloh roziligi deb, zo'r kutib mehmonlarni,

Padar-buzrukvoringiz, qurbon qildimi Sizni?!

E'tiqod, ixlosi bir sinov bo'lgan jonlarni,

Shunday bir tarozuda o'lchaydi olloh izni...

Farishtalar ilgida tirilgan shoh-jahonim,

Hayot bormi osuda, aytingchi, otajonim?!

(Shoira M. Yusupova)

OLLOQULI BUZRUK

Olloquli buzruk haqidagi hikoyamizni boshlamasdan oldin bir narsani eslatib qo'yishni niyat qildik. Bu bir davrning o'zida faoliyat ko'rsatgan Olloqulixon (Xiva xoni) va Olloquli eshon yoki Olloquli buzrukdir. Hikoyamiz ikkinchi shaxs – To'rtko'limizning tarixida muhim o'rinni egallagan xonqalik kuchanchi eshon buva Olloquli buzruk haqidadir.

Olloquli buzruk taxminan 1765-1785 yillarda xorazm viloyatining Xonqa tumani Alakchi qishlog'ida tavallud topganlar. 17-yoshlarigacha Xiva madrasasida tahsil olib domlalarining e'tiborini qozonganlar. 22-yoshidan boshlab Buxoroda Olloquli eshon ilmu- ta'limni mukammal o'rgangan. Ilmga bo'lgan ishtiyoq bobomizni 25 yoshida Makka, Madinaga olib borgan. U yerdan Olloquli buzruk nomini olib, 28-30 yoshlarida ona vatani Xonqaga kelgan va yerto'lada yashab, dehqonchilik hamda kuchanchilik bilan shug'ullangan. U bir kecha- kunduzda 50-60 ta kuchanni tikib bitkazgan. Shu bilan uning dovrug'i butun hududga tarqaldi. Chunki, hych bir hunarmand bir kecha-kunduzda shuncha kuchanni bitkaza olmagan.

1826-27- yillarda Xiva xoni Olloqulixon saroy qurdiradi, va lekin ichiga lira olmaydi. Xon o'z yurtidagi barcha eshon, tabib, folbin va shunga o'xshash karomatli kimsalarni chaqirtiradi. Kelganlarning hych biri parilarni quvib chiqara olmaydi. Xon vazirlari bilan mastlahatlashib, Buxoro xonligiga elchilar yuboradi. Buxoroda elchilarga "Parilarni quvadigan ilmni Xorazmlik Olloquli olib ketgan" deyishadi. Xiva xoni bu xabarni eshitib, barcha ilmli, karomatli odamlarni ziyofatga chaqirib, osh-non beradi. Ziyofatda Olloquli bobomiz ham qatnashadi. Shunda Olloquli bobomiz hych narsa yemay o'tiradilar. Olloqulixon Olloquli bobomizga qarata- "Siz nimaga hych narsa yemayapsiz?" deganlarida, bobomiz Qur'oni Karimdan ikki oyatni o'qib, "pisht" degan ekanlar, tovoqlardagi go'sht mushukka aylanib, qochib ketgan. Ana shundagina xon: "Men sizning ilmingizga, azizligingizga, avliyolingizga tan berdim"-deya muddaosini aytgan ekan. Bobomiz saroyga kirib parilarni quva boshlagan va eng oxirida parilardan eng qarilari, ko'zi ojiz, mayib-

majruh, yaramaydiganlari bobomizga qarata:”Olloquli, bizlarga tegma! Bizlar bir xonada tuynukdan kirib-chiqib, hyech kimga ozor bermay yuraveramiz”-deb yalinganlar. Bobomiz bu iltimosni xonga yetkazgan. Xon rozi bo’lib, bir xonaga qulf urdirib qo’yadi. Shu xona hozir ham bo’lib shu paytgacha unga hyech kim kirmagan.

Olloqulixon Olloquli bobomizdan “tila-tilagingni” deganlarida Olloquli bobomiz bitta tushi ro’yobga chiqayotganidan juda quvonganlar.

Norinjon valiy hamda Sulton Uvays buva ziyoratidan qaytayotganlarida hozirgi To’rtko’l tumani paxta tozalash zavodi hududida tunaydilar va u yerda tushlariga bir mo’ysafid kirib – “Men shu yerda yotibman. Shu yerni vatan qil, obodonlashtir” deganlarida uyg’onib ketadi va shu yerni adashtirmaslik uchun yerga tayoq suqib, uchiga ro’molcha-qiyiqchasini bog’lab yo’lga tushadi.

Yo’lni ham adashtirib qo’ymaslik uchun asolarining uchi bilan bir metr to’g’ri, yana bir metr qiyshiq tortib yerni chizib ketadilar.

Hozir bu chiziq Eshonyop deb ataladi. Rivoyatlarga qaraganda tuman hududida qurg’oqchilik ko’p bo’lib, ekinlar, dov- daraxtlar qurib qolgan. Olloquli eshon buva chizib ketgan chiziq o’rnida esa yop (ariq) paydo bo’lgan va Olloquli eshon nomi bilan bog’lanib “Eshonyop” deb atalgan. Eshonyop hozir ham bo’lib, bundan oqqan suv esa shu yerlik o’tirimli xalqning tomorqasini va ko’cha-ko’yda o’sib turgan dov-daraxtlarni suv bilan ta’minlaydi.

Olloquli eshon buvamızning tushlariga kirgan mo’ysafidning hali bugungacha kim ekanligi noma’lum. Lekin xalq bu yer-bu makon- To’rtko’lni Tangrining nazari tushgan yurt deb e’zozlashadi.

Olloquli bobomizning shu tushi yodiga tushib, Olloqulixonga qarata: “Daryoning o’ng qirg’og’idagi yerni xatlab, ya’ni farmon bilan o’ziga berilishini; ikkinchidan, Sulton Uvays bobomizning maqbarasini qayta ta’mirlab berishni Olloqulixonidan so’raydi. Xon bobomizning tushiga kirgan yer-taxminan 5525kv m. yerni bobomizning ismlarini yozib, xatlab beradi. Olloqulixonning farmoyishi bobomizning qarindosh- urug’lari qo’lida saqlanib kelinmoqda. Olloqulixon Sulton

Uvays bobomizning maqbarasini 1836-38 yillarda, bizgacha yetib kelgan maqbarani ta'mirlatgan.

Shunday qilib, bobomiz Olloquli buzruk o'z muridlari bilan daryodan o'z joy-namozlari ustida uchib o'tib, tayoq suqib ketgan yerga qarasa, tayoq gujum bo'lib qolibdi. Kelib birinchi boshlagan ishlari quduq qazibdi. Lekin, qancha urinmasinlar, suv chiqmabdi. Bobomiz kechqurun xudodan suv chiqarishini so'rab, uxlab qolibdilar. Uyg'onib qarasalar, hamma yoqni suv bosish arafasida ekan. Olloquli eshon bobomiz dam urib "qayt", deb suvni quduqdan chiqarmaydigan qilibdilar. Quduqdan chiqqan suv- shifobaxsh suv bo'lib, shifo tilab, farzand tilab kelgan insonlar qudukni va atrofida yotgan ulug'larni, hazrati eshon buvalarni ziyorat qilib ketishadi. Shu quduqning to'rt tomoniga to'rt terak ekib, har bir terakning uchiga qizil gulni sopganlar. Har bir terakning uchida ochilgan gul uzoqdan ham ko'zga yaqqol tashlangan. Shu-shu yerli aholi aholi og'zida bu makon to'rt gul bo'lib shakllangan. Katta yo'ldan o'tgan, qaytgan karvonlardagi odamlar "To'rt gulda to'xtab, dam olib o'tdik" deya, e'tirof qilib ketishgan. Shunday qilib, To'rtko'limizning nomlanishiga ham to'rt gul sabab bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Buvamiz obod qilgan ziyoratgohni Apamli avliyo deb atalishiga bobomizning tayoqqa bog'lab ketgan qiyig'i-alami sabab bo'lgan, Alamli avliyo deb atalishining 2-sababi ham bor. Buxoro xonligidan Abduxoliq tabib boshchiligida bu yerga 40 tacha ilmi odamlar ziyoratga kelishgan. Shularning orasida 75 yoshli befarzand, ilmda eng kuchli inson- Musoxo'ja tabib shu yerga kelib bandalikni bajo keltiradi. Uni ham shu yerga dafn qilishib, qabri ustidagi tayoqqa alam bog'lashadi." Alamli avliyo buva", "Alamli ro'yobga chiqqan. machit", "Adamli ziyoratxona", "Alamli qishloq" nomlari ham shu asnoda ro'yobga chiqqan. Olloquli buzruk o'z o'g'illari Abduvaysi eshonjon hajdan qaytgandan keyin, quduq atrofini obodonlashtirishni u kishiga topshiradi. Janubga qaragan yo'lning o'ng tomonidagi ziyoratxonani Abdug'ani eshonjonga, chap tomonini Asriddin eshonjonga topshiradi. U hozirgi Ulug'bek magazinining o'rnida, 50 kishilik namoz o'qiydigan masjid, To'rtko'ldagi barcha masjid qavmlarga rahbarlik qilib, faoliyat ko'rsata boshlaydi. Shu davrda 10-15 oila bir qavmda bo'lgan. Har bir oilaning taxminan 7-9 a'zosi bo'lsa, har bir

qavmda 100- 120 tacha odam hisobda bo'lgan. Bir machit qavmida 600-700 odam hisobda bo'lgan. Alamli qishloq tarkibiga ana shunday machit qavmlardan 5 tasi: 1) Paqqa, 2) Qozi, 3) Ullibog', 4) Idr, 5) Dangirdaq machit qavmlari kirgan. Alamli qishloq machitqo'mi ana shu 5 ta machitqo'mga, ya'ni 2500-3500 odamga ma'naviy-g'oyaviy rahbarlik qilish bilan birga milliy urf-odatlarimizni targ'ib qilib xalqning qalbiga singib borgan. Alamli qishloq machitqo'miga kelib so'rab, foydali maslahatlar, yo'l-yo'riqlar olishgan. Olloquli buzrukning farzandlari xalqning qalbidan juda chuqur joy olganki, 1903-yilga kelib, Alamli ziyoratxonada yana 300 ta o'rinli namoz o'qiydigan masjid qurdiriladi. Alamli masjid oktyabr to'ntarilishidan keyin kolxoz idorasi va omborxonasi vazifalarini bajargan. Shu yillarda kolxoz rahbarlarining buyrug'i bilan Alamli qishloqdagi 16 tup katta gujumlar va mevali daraxtlar yo'qotilib, o'rniga paxta quritiladigan sushilka qurildi. 1943 yilgacha kolxozning omborxonasi, selpo va med. Punkt vazifalarini bajardi. Alamli masjid 1949- yildan boshlab, To'rtko'l shahrining hisobiga o'tdi. Paxta tozalash hamda 1963- yildan sut-yog' zavodi qurilishi boshlanganligi munosabati bilan Alamli masjid hamda Alamli buva qabristonini sho'ro rahbarlari tomonidan buzishga qaror qilindi. Mahalliy aholidan hech kim bu ishga bosh qo'shmadi. Rahbarlarning buyruqlari bilan harakat qilgan, boshqa yurtlardan kelgan shofyor va ishchilar faqat zarar ko'rdilar, xolos. Traktor minib buzishga chog'langan bitta shofyor shu yerning o'zida olamdan o'tdi...Sho'ro rahbarlarining Alamli avliyo buva qabristonini buzish niyatlari chippakka chiqdi. Mustaqillikning mayin, erkin shamollari Alamli avliyo buva ziyoratxonasidan ham esib o'tdi. Lekin turg'unlik yillarida ham quduq va uning atrofini mahalliy xalq tark etmagan edi. Shu o'rinda aytib o'tish joiz. Olloquli buzrukning hamda uning o'g'illarining jasadlari o'z vatanlari- Xonqa tumani, alaqchi qishlog'idagi qabristonga qo'yilgan. Rivoyatlarga qaraganda Asriddin eshonjon o'g'lining jasadini daryodan olib o'tayotganlarida uni ko'tarib borayotgan 4ta odam bilan birga jasad daryoga cho'kadi. Lekin oz fursat o'tgandan keyin qarasarlar, shu 4 ta odam jasad solingan tobutni quruqlikda ko'tarib borayotganini ko'rishadi. Eshorjonlar bu holatdan o'zlariga ma'ni qilib, bir hikmatni

anglashdi. Ya'ni To'rtgul ham endi o'zlarining vatani ekanligini, qolgan qarindosh-urug'larini shu yerda qo'yish ham mumkin ekanligini bilib, shunga amal qilishadi.

1997- yilda birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning tarixiy va muqaddas joylarni ta'mirlash kerakligi haqidagi farmonidan keyin To'rtko'l tumani hokimligining qarori bilan Alamli ziyoratxonani obodonlashtirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yildi. Alamli masjid-u, ziyoratxonaning paydo bo'lib, rivojlanishida Olloquli buzrukning xizmatlari juda katta va beqiyosdir. Hozirda bobomizning 6- va 7- avlodlari ziyoratga kelganlarga xizmat qilmoqda.

Olloquli buzrukning shajarasi esa quyidagicha:

Olloquli buzruk, undan 3 ta o'g'il:

2. Abduvaysiy, Abdug'ani, Asriddin va undan:

3. Ibodulla eshonjon, undan:

4. Asriddin eshonjon, undan:

5. Abduholiq eshon, (mexnat faxriysi, shifokor Abduholiq eshonbuvaning xotiralariga asoslanib, tarixiy manbalardan foydalangan holda bu maqola yozildi. Abduholiq eshon buva 2001 yil 8 dekabr kuni 76 yoshida olamdan o'tdi.) Undan:

6. Ibodulla eshon. Undan:

7. Davronjon eshon. (1973 yilda tug'ilgan. Hozirda Alamli ziyoratxonani obodonlashtirish ishlarida faoliyat ko'rsatmoqda). " Bu yerlarga tegishli uzunasiga 85m, eniga 65 m, jami 5525 kv m.ni shahar bosh me'mori bilan birgalikda o'lchab, belgilab chiqdik, xayr- saxovatli xalqimiz sharofati bilanqamishzorlar o'rniga mevali, manzarali daraxtlar ekildi. Atrof ko'kalamzorlashtirildi... Lekin bobomiz gumbazining qabristonni buzish niyatida traktor shikast yetkazgan joylarini ta'mirlash, ziyoratxonani bundan ham obodonlashtirish eng so'nggi orzuim bo'lib qoldi..." degan edi. Abduholiq eshon buva (arhum). Abduholiq eshon buvaning bu so'nggi orzulari bugungi kunda go'zal ravishda amalga oshayapti. Bundagi har bir bosilgan ezgu Abduholiq eshon buvani yodga soladi. Nimagaki, Abduholiq eshon

buvaning sa'y- harakati bilan Olloquli buzrukning qadriyati qayta tiklandi. Olloquli buzruk nevara, chevara, evara, yovliq va yotliqlari bilan ham shu zaminda tomir tashlagan ulkan bir gujunga o'xshaydi. Zero, To'rtko'l aholisining ko'pchiligi shu buzrukning shajarasiga borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova M. R. To'rtko'l zaminidagi buyuklar/ M.R. Yusupova.-Urganch: UrDU, 2003.-23b.
2. To'rtko'lim-dur-gulim (Matn): / M. Yusupova.- Toshkent: Istiqlol,2017.- 152b.
3. Rahmonov H. To'rtko'l (petro- Aleksandrovsk) :tarixiy-ilmiy risola/ H.Rahmonov, K. Nurjonov.- Urganch: Xorazm, 1993.- 63b.

Tuzuvchi:

Axborot-bibliografiya

xizmati bibliografi:

M. Ro'zimbetova.